

**BUDJET TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Eshmuradov Muhiddin Norbo‘ta o‘g‘li

magistirant, Toshkent moliya instituti budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasini

A.Ostonokulov

ilmiy rahbar DSc Prof. v.b, Toshkent moliya instituti budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasini

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet tashkilotlari budgetdan moliyalashtirilishlaridan tashqari o‘zlari qo‘srimcha daromad olish huquqlariga egalar. Ana shu qo‘srimcha mablag‘larning budget tashkilotlarining budgetdan tashqari hisoblariga to‘liq kelib tushishi va ushbu mablag‘lardan foydalanishda budget tashkilotlari xodimlarining manfaatlarini oshirish budget tashkilotlariga biriktirilgan mulk va budget tashkilotlarining boshqa imkonlaridan keng foydalanishni rag‘batlantiradi, iqtisodiy o‘sishga qo‘srimcha dalda beradi va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkonlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: budget tashkiloti, moliya, mablag‘, tushum, ijara, rag‘barlantirish, buxgalteriya xodimlari, kadrlar oqimi.

KIRISH

Budget kodeksining 44-moddasiga asosan budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari quyidagilardir [1]:

- budget tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi;
- tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi;
- vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining budgetdan tashqari jamg‘armalari;
- budget tashkilotlarining undiriladigan to‘lovlar hisobiga shakllantiriladigan budgetdan tashqari mablag‘lar.

Budget kodeksining 60-moddasiga asosan budget tashkilotlari rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari quyidagi manbalardan shakllanishi mumkin:

- hisobot choragini so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno;
- faoliyat ihtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- budget tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;
- belgilangan tartibda budget tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;
- homiylikdan olingan mablag‘lar hisobidan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Budget tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasiga budget tashkilotlarining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlari tovarlarni (ishlarni,

xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va ularni ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'lari [4]:

➤ faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;
➤ budget tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolar va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijara berishdan;

➤ yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotlariga ko'rsatilayotgan homiylik (beg'araz) yordami hisobidan;

➤ hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejab qolningan mablag'lardan (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

➤ tibbiyot muassasalarini bo'yicha budget mablag'larining umumiyligi hajmining 5 foizigacha bo'lgan miqdorigacha bo'lgan mablag'lar hisobidan;

➤ ta'lim muassasalarida undirladigan to'lovlar hisobidan tushgan mablag'lar (otonalalar badal to'lovi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olganlik uchun to'lov, statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlar tarkibidan ovqatlanish uchun).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Budget tashkilotlarida budgetdan tashqari tushumlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rni to'ldirilgandan keyin budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari ishlatilish tartibi quyidagicha [5]:

➤ avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar va mavjud kreditorlik qarzlarini to'lashga;
➤ budget tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;
➤ ijtimoiy rivojlantirish va budget tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga.

Budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va ishlatilishi borasida hali mavjud imkonlardan to'liq foydalanilmayotgani yo'q. Budget tashkilotlarini budgetdan tashqari jamg'armalarini ko'paytirish uchun avvalo budget tashkilotlarining ichki imkoniyatlarini inventarizatsiya qilish zarur. Bunda quyidagi ob'ektlar inventarizatsiyadan o'tkazilishi lozim [6]:

- budget tashkiloti balansida bo'lgan foydalanilmayotgan bino va inshootlarni;
- tajriba uchun ajratilgan yer maydonlarining ahvoli;
- tajriba uchun ajratilgan bog'lar (tokzorlar) ahvoli;
- jami texnikalar soni va ularning ahvoli (soz, nosoz);
- ustaxonlardagi mavjud asbob-uskunalarining ahvoli (soz, nosoz);
- oshxonalar va ulardagi jihozlarning ahvoli;
- boshqalar.

Daromadlar orqali budget tashkilotlari xodimlarni ko'proq moddiy tomondan rag'batlantirsa, ushbu rag'batlantirish orqali budgetdan tashqari daromadlar qismini

ko'paytirish bo'yicha xodimlar o'rtasida qiziqish paydo bo'ladi, bu o'z navbatida budgetdan tashqari mablag'larning ko'payishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Foydalanilmayotgan binolar, oshxonalar va oshxonalar jihozlarini ijaraga berish orqali yoki budget tashkilotining mavjud asbob-uskunalaridan samarali foydalanishlari orqali ishlab chiqarishni, tajriba uchun ajratilgan yer maydonlaridan hamda boshqa manbalardan samarali foydalanishlari natijasida budgetdan tashqari daromadlarni ko'paytirishlari hisobiga qo'shimcha ish o'rinnari yaratishlari mumkin. Buning natijasida ishchi-xodimga hisoblangan ish haqidan olinadigan soliq turlari bo'yicha budgetga qo'shimcha mablag'lar kelib tushadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflarning amalga oshirilishi budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'larining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Budget tashkilotlarining ichki imkoniyatlari bo'yicha to'liq inventarizatsiya o'tkazish hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan budget tashkilotlarning daromadlari hisobiga shakllangan mablag'larning ko'proq qismini xodimlarni rag'batlantirishga yo'naltirish lozim. Inventarizatsiya natijasi bo'yicha budget tashkilotlari qaysi ishlarga imkoniyatlari yetarli bo'lsa, ijaraga bermasdan o'zları foydalansalar, ko'proq daromad oladilar hamda moddiy rag'batlantirish natijasida xodimlar o'rtasida daromadni ko'paytirishga qiziqish ortadi.

2. Uch tomonlama tuzilayotgan ijara shartnomasi tuzilishi jarayonida, ya'ni ijara markazi tomonidan shartnomalarida kommunal xizmat turlari bo'yicha qat'iy band belgilanishi ko'rsatilmagan bo'lsa, ijaraga beruvchi tomonidan tegishli xulosani shartnomaga ilova ko'rinishida taqdim etish kerak. O'rganishlashlar jarayonida aniqlanayotgan kommunal xizmat turlari bo'yicha budget tashkiloti va ijaraga oluvchi o'rtasida ijara shartnomasini tuzmasdan faoliyat yuritayotganligi natijasida budget mablag'lari hisobidan ijarachi tomonidan mablag' ajratilishiga barham berilardi.

3. Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hamda ijtimoiy rivojlantirish va budget tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga yo'naltiriladigan mablag'lar taqsimoti ulushini qayta ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Bunda ijtimoiy rivojlantirish va budget tashkilotlarining xodimlarini moddiy rag'batlantirish tadbirlariga yo'naltiriladigan mablag'lar ulushini ko'paytirish, budget tashkilotlari xodimlarining moddiy manfaatlari oshirilishi va ko'plab bo'sh, ishlatilmay yotgan imkonlaridan samarali foydalanishga undaydi. Mazkur mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish budget tashkilotlari buxgalterlarining ishdagi qo'nimsizliklari masalasining bartaraf qilinishi, budget tashkilotlari debitor-kreditor qarzlarini qoplashga va umuman iqtisodiy taraqqiyotni jadalllashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ijaraga berilayotgan mulkning mahalliy budgetga va ijara markaziga mablag'lar ulushini kamaytirib, ijara daromadlarining asosiy qismini budget tashkilotlari o'zlarining tasarruflarida qoldirishlari budget tashkilotlarining ularga biriktirilgan mulkdan imkon boricha to'liq va samari foydalanishlarini rag'barlantiradi. Bu hol esa iqtisodiyotimiz o'sishi va tadbirkorlikni

yanada rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi O‘RQ-360-son qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrdagi «Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 414-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 iyundagi 382-son qarori bilan tasdiqlangan «DAVLAT MULKINI IJARAGA BERISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH HAQIDA»gi qarori.
4. Boldirev V. A. Davlat va munitsipal muassasalarining yangi tipologiyasi V. A. Boldirev // Rossiya adliyasi. – 2018. -N 10. -b. 62-65.
5. Komlov I.A. va Chijova A.A. "Iqtisodiyot va jamiyat" avtonom rejimiga o'tish sharoitida ta'lif muassasalarini moliyalashtirish url: www.iupr.ru
6. Rudnik B.L., Shishkin S.V., Yakobson L.I. Davlat va shahar ta'lif muassasalarining shakllari: taklif etilayotgan yangiliklarning sabablari va oqibatlari. 2020
7. Garnov Yu. I. Davlat (shahar) budget muassasalarini yangi hisoblar rejasiga o'tkazish xususiyatlari // Yu. I. Garnov / Budget va notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. -No29 (283). -2011 yil.
8. Markov S.N. Umumiyligda budget mablag‘larini sarflash samaradorligini oshirish. monografiya, 2013 yil
9. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликада таваккалчилик турлари. Scienceweb academic papers collection.